

UDK: 636.92:576.89

**QUYONLAR EYMERIOZNI DAVOLASHDA KENG QO‘LLANILADIGAN
PREPARATLAR**

Sh.I.Ergashov

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti, 4-bosqich talabasi.*

E-mail: ergashovshaxram@gmail.com

A.X.Xushnazarov

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti, tayanch doktoranti.*

E-mail: phd.xushnazarov@gmail.com

R.B.Davlatov

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti, professori.*

E-mail: davlatov.r1965@gmail.com

Annotatsiya - ushbu maqolada quyunchilik xo‘jaliklarida keng tarqalgan kasalliklardan biri bo‘lgan eymeriozning tarqalishi va kasallikni davolashda keng qo‘llaniladigan ayrim antiemeriy preparatlarni qo‘llash haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Quyon, eymerioz, koksidioz, preparat, Amprolium, Toltroks, Intracox oral, Yod eritmasi.

Abstract - this article provides information on the spread of eimeria, one of the most common diseases in rabbit farms, and the use of some anti-eimeria drugs that are widely used in the treatment of the disease.

Keywords. Rabbit, eimeria, coccidiosis, Amprolium, Toltrox, Intracox oral, Iodine solution.

KIRISH. Qishloq xo‘jaligining eng muhim vazifasi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni yanada ko‘paytirishdir. Quyunchilik chorvachilikda go‘shat resurslarini ko‘paytirish borasida hamda yengil sanoatni xomashyo bilan ta‘minlash borasida ham katta salohiyatga ega bo‘lgan sohalardan biridir. Dunyo iqtisodiyoti va iste‘mol zanjirida quyunchilik alohida o‘rin tutadi. Frantsiya, Belgiya, Ispaniya, Argentina va Meksika bu borada eng yaxshi tajribaga ega davlatlardan hisoblandi. Mo‘ynali va paxmoq zotli quyonlarni yetishtirishning katta ulushi Xitoyga tegishli, Italiya esa ikkinchi o‘rinni egallaydi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tavsiyalariga ko‘ra, insonning parhez ovqatlanishda 5 foizidan ko‘prog‘i parhez go‘shati bo‘lishi kerak. Aholi jon boshiga quyon go‘shatini iste‘mol qilish yiliga 5,5-6 kilogrammni tashkil etishi lozim. Germaniya, Frantsiya va Vengriyada bu ko‘rsatkich 2,5-3 kilogrammni tashkil etadi, ushbu mamlakatlarda mahsulotlarning 65 foizi klaster usuli bilan ishlab chiqariladi.

Qishloq xo'jaligi klasteri - bu o'zlari va innovatsion rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi tashkilotlar o'rtasidagi raqobat va hamkorlik asosida ishlaydigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini geografik jihatdan qo'shtni ishlab chiqaruvchilar, mahsulotlarni qayta ishlovchi guruhdir.

Prezidentimizning 2020 yil 29 yanvardagi "Chorvachilik sanoatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida boshqa chorvachilik tarmoqlarini rivojlantirish bilan bir qatorda quyonlarni parvarishlash bo'yicha ixtisoslashgan komplekslarni qurish, chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash bo'yicha loyihalarni amalga oshirish bo'yicha vazifalar belgilab berildi.

O'zbekistonda quyon boqishni rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq, 2020-2024 yillarda respublikada quyon boqish klasterlarini ishga tushirish dasturi ishlab chiqilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Chorvachilikning kichk tarmog'i bo'lgan quyonchilikda mahsuldorlikni yetarli darajada oshishiga ko'pincha turli parazitlar kasalliklar yo'l qo'ymaydi, ular orasida eymerioz alohida o'rin tutadi. Eimeriyalar keltirib chiqaradigan kasalliklarning xususiyati va ularning iqtisodiy ahamiyati profilaktika va davolash usullarini doimiy ravishda takomillashtirishni talab qiladi.

Quyunchilik bilan shug'ullanadigan har bir kishi *Eymerioz (koksidioz)* deb ataladigan (parazitar) kasallik haqida biladi. Bu invazion kasallik jigar va ichaklarda parazitlik qiladi va ko'p hollarda xo'jalikdagi yoki shaxsiy xonadonlardagi quyonlarning 90% gacha o'limiga olib keladi.

Invazion kasalliklar orasida quyon eymeriozi eng keng tarqalgan xavfli kasallikdir. Bu kasallik bilan asosan 3-4 oylik quyonchalar kasallanadi. Shaxsiy tadqiqotlarimizda esa barcha yoshdagi quyonlarda ushbu parazitning oosistalarini topdik. Kasallikni ko'zg'atuvchisi ichak va jigarda hayot kechiruvchi eymeriyalardir. Kasallikka quyonlar yilniig turli fasllarida chalinishi mumkin. Kasallik suv va ootsista bilan zararlangan oziqa orqali quyonlarga yuqadi.

Kasallikning klinik belgilari. Eymerioz quyonlarda turli xil ko'rinishda yuz berishi mumkin. Eymerioz bilan quyon ichagi kasallanganda ichi ketadi va quyonning ahvoli kundan-kunga og'irlashadi, yaxshi ovqatlanmaydi, ozib ketadi, yosh quyonchalar o'sishdan qoladi. Yungi hurpayadi, qorn sohasi miyyoridan ortiq shishib ketadi va osilib qoladi, tana harorati ko'tariladi, 15-20 kundan keyin quyon o'ladi.

Kasallikning jigar formasi uzoq vaqt davom etadi (30-50 kun). Klinik ko'rinishi jihatidan, u ichak formasiga uxshab ketadi, biroq farqi shundaki, kasallik belgisi kamroq namoyon bo'ladi.

TADQIQOT USULLARI VA NATIJALARI. Kasallika o'z vaqtida tshxis qo'yish, to'g'ri va o'z vaqtida davolanish ishlarini qo'llash juda muhimdir. Bugungi

kunda aynan quyon eymeriozi uchun qo'llashga preparatlar kam uchraydi ammo eymeriyalar uchun bir qancha preparatlar keng qo'llanilmoqda, ulardan ayrimlarining tarkibi, qo'llanishi haqida quyidagi ma'lumotlarni keltirganmiz.

Amprolium - parranda va quyonlarda eymeriozga qarshi ishlatiladigan eng samarali dori-darmonlardan biridir. Ushbu vosita oq kukun holda bo'lib, suvda yaxshi eriydi. Amprolium gidroxloridi faol moddasi tezda eymeriya hujayralariga kirib, uglevod metabolizmini buzadi. Shunday qilib, Amprolium parazitlardan tezda xalos bo'lishga yordam beradi. Mahsulot 10-50 grammlik kichik paketlarga yoki 1 kg yoki undan ortiq kattalikdagi paketlarga qadoqlanadi. Preparat Amprolium yo'riqnomada ko'rsatilgan dozaga rioya qilgan holda quyonlarga beriladi. Amprolium past toksik xavfli vositalar ro'yhatida shuning uchun u bilan ishlashda ehtiyot bo'lish kerak. Aslida amprolium gidroxlorid shilliq qavatlarining o'ziga xosligi sababli quyonlarga deyarli toksik emas. Ammo odam uchun bu modda xavfli, shuning uchun juda ehtiyotkorlik bilan preparatni qo'llash kerak. Amproliumni ishlatish bo'yicha ko'rsatmalar: agar hayvon preparat bilan davolash kursini o'tagan bo'lsa, preparatni so'nggi dozasiidan 5-10 kun o'tgach hayvonni so'yish mumkin. O'sha vaqtga qadar davolanagan quyonlarning go'shtini istemol qilish mumkin emas va Amprolium bilan ishlashda xavfsizlik choralariga rioya qilish kerak.

Toltroks – parranda va quyonlarda parazitlik qiluvchi eymeriyalarning barcha turlariga, shu jumladan boshqa preparatlarga chidamli eymeriya turlariga nisbatan kuchli ta'sirga ega. Preparatning tarkibidagi tasir qiluvchi toltrazuril eymeriyalar hujayra ichi rivojlanishining barcha bosqichlariga eymeriosid ta'sir ko'rsatadi. Quyonlar, eymerozlarida davolash-profilaktika maqsadida qo'llaniladi. Preparat axlatda eymeriya oosistalari topilganda, shuningdek quyonlarda kasallikning klinik belgilari paydo bo'lganda buyuriladi. Preparat ichimlik suvi bilan quyidagi sxemalardan biriga muvofiq qo'llaniladi: a) 1 l ichimlik suviga 1 ml preparat, 48 soat davomida ichiriladi. b) 1 l ichimlik suviga 3 ml preparat, quyonlarga ketma – ket 2 kun 8 soat davomida ichiriladi. Zarur hollarda, og'ir kasalliklar holatida, davolash kursi 5 kundan keyin takrorlanadi. Dorivor eritma (preparatni suv bilan aralashtirgandan so'ng) 48 soat davomida faolligini saqlab qoladi.

Intracox oral - eymeriozni davolash uchun Intracox oral samarali vositadir. Preparat eritma shaklida bo'ladi Intracox oralning faol moddasi - toltrazuril - hujayra ichi darajasidagi eymeriyani o'sishini to'xtatadi. Intracox oral ba'zi eymerosid preparatlarga qarshi chidamli bo'lgan eymeriyalarning turlari uchun ham samaralidir. Quyonlarda dori bilan davolanishdan keyin eymeriozga passiv immunitet hosil bo'ladi. Davolashni boshlash uchun Intracox oral ichimlik suvida suyultiriladi va quyonlarga beriladi. Intracox oral bilan davolanish davrida siz vitaminlar va ozuqaviy qo'shimchalar berishni davom ettirishingiz mumkin, preparat boshqa preparatlar bilan yaxshi muloqotda bo'ladi. Intracox oral bilan quyonlarda eymeriozni davolash sxemasi

quyidagicha, 11 suvga 1 ml preparat aralshtirilib eritma 2 kun davomida uzluksiz suv bilan beriladi, keyin 5 kun tanaffus qilib kursni takrorlash lozim. Intracox oralning past toksikligi bor. Boshqa dorilar bilan bo'lgani kabi, bu dori shakli bilan ishlashda ehtiyot bo'lish kerak. Go'sht uchun quyonlar davolash tugaganidan keyin 8-10 kun o'tgach so'yilishi mumkin.

Yod eritmasi - eymeriozini davolashda yod saqlovchi preparatlarni suvli-sutli rastvor sifatida ishlatib yuqori natijalar olish mumkin. 50 ml distillangan suvga 1 gr Kristal yodni va 2 gr kaliy yodini (yodning suvli eritmasi) eritish lozim. So'ngra shu rastvorga 250 ml yangi sut qo'shib past olovda qizdirish kerak. Boshlanishida rastvor qo'ng'ir tusga kiradi, biroz vaqt o'tgach oq rang hosil bo'ladi. So'ngra uni suv bilan 1:6 nisbatda (500 ml rastvor 3 l suvga) suyultirish kerak va quyonlarga suv o'rniga (250 ml bir quyonga) 12 kun davomida berish mumkin.

MUHOKAMA. Antemeriy preparatlari xo'jalik sharoitida quyonlar eymeriozini davolash va profilaktika qilish uchun ko'rsatilgan miyyorlarda va ko'rsatilgan kun davomida berilishi tavsiya qilinadi.

- kasallikni oldini olish maqsadida quyonlarni sim to'rli kataklarda saqlash lozim;

- kasal quyonlar sog'lomlaridan ajratilib maqbul sharoitda asraladi va uglevodga boy ratsion asosida oziqlantirilishi shart;

- to'shamalar har kuni almashtirilishi va oziqa ohuri hamda suv idishlarini qaynoq suvda yuvish maqsadga muvofiq.

XULOSA. Yo'qoridagi dori moddalarining umumiy ta'sir ko'rsatishi, aynan quyon eymeriozi uchun ishlatilmasligini inobatga olib aynan ushbu kasallik uchun quyonlar eymerioziga ta'sir ko'rsatuvchi preparatlarni ishlab chiqarish bugungi kunning asosiy vazifasi bo'lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Berdiyevich, D. R. (2023). TO DETERMINE THE EFFECTIVENESS OF ANTIBIOTICS IN PREVENTING CHICKEN COLIBACTERIOSIS BASED ON EXPERIMENTS.
2. Бердиев, Х. Р., & Давлатов, Р. Б. (2021). Эффективность Энровит-О при химической профилактике колибактериоза цыплят.
3. Butaeva, I. M., Salimov, H. S., & Davlatov, R. B. (2020). On The Diagnosis Of Mixed Bacterial Infections Of Birds. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(9s), 2308-2315.
4. Давлатов, Р. Б., & Хушназаров, А. Х. (2022). ҚУЁН ЭЙМЕРИОЗИ ЭПИЗООТОЛОГИЯСИ ДАВОЛАШ ВА ПРОФИЛАКТИКА ЧОРАТАДБИРЛАРИ. *AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 181-184.
5. Давлатов, Р. Б., & Бердиев, Х. Р. (2021). ТОВУҚ КОЛИБАКТЕРИОЗИНИНГ КИМЁПРОФИЛАКТИКАСИДА ОФЛОСАННИНГ САМАРАДОРЛИГИ. *Вестник Ветеринарии и Животноводства*, 1(1).

6. Давлатов, Р. Б., Салимов, Х. С., & Тоиров, Ж. Э. (2018). ВОПРОСЫ ЭПИЗООТОЛОГИИ ЭШЕРИХИОЗА ПТИЦ В УЗБЕКИСТАНЕ. In *Современное состояние, традиции и инновационные технологии в развитии АПК* (pp. 67-73).
7. Давлатов, Р. Б. (1993). Совершенствование методов борьбы с аскариозом кур.
8. Давлатов, Р. Б. (2023). ТОВУҚ КОЛИБАКТЕРИОЗИ (АДАБИЁТЛАР ШАРХИ). *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 3(26), 107-111.
9. Давлатов, Р. Б., Салимов, Х. С., & Хўджамшукуров, А. Н. Паррандалар касалликлари. *Ўқув қўлланма, Самарқанд-2018*.
10. Давлатов, Р. Б., Салимов, Х. С., & Тоиров, Ж. Э. ЧУВСТВИТЕЛЬНОСТЬ КОЛИБАКТЕРИОЗА ПТИЦ К АНТИБИОТИКАМ КОЛИБАКТЕРИОЗИС SENSITIVITY TO ANTIBIOTICS. *ББК 65.2 С56*, 39.
11. Давлатов, Р. (2008). Коликокцид-препарат против эимериоза и колибактериоза птицы. *Птицеводство*, (1), 28-28.
12. Давлатов, Р. Б., Расулов, У. И., & Исломов, Г. П. (2018). МЕТОДЫ ТЕРАПИИ И ПРОФИЛАКТИКИ ПИРОПЛАЗМОЗА КРУПНОГО РОГАТОГО СКОТА. In *Современное состояние, традиции и инновационные технологии в развитии АПК* (pp. 73-76).
13. Даминов, А. С., Хашимов, Б. С., & Хушназаров, А. Х. (2018). ЭПИЗООТОЛОГИЯ И ЛЕЧЕНИЕ ПАРАМФИСТОМАТОЗА КРУПНОГО РОГАТОГО СКОТА. In *Современное состояние, традиции и инновационные технологии в развитии АПК* (pp. 76-83).
14. Ergashov, S. I., & Eshqorayev, A. M. (2023). PROTECTION OF RABBITS FROM EYMERIOSIS (COCCIDIOSIS). *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 14(5), 121-127.
15. Ergashov, S. I., & Eshqorayev, A. M. (2023). EMERIOSIS OF RABBITS (LITERATURE ANALYSIS). *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 14(5), 114-120.
16. Гафуров, А. Г., Давлатов, Р. Б., & Расулов, У. И. (2013). Ветеринарная протозоология. *Учебник для ВУЗа. -Т.:«Зарафшан*.
17. Жабборов, Ф. Ф., Нишанов, Д. Х., & Райимкулов, И. Х. (2023). ҚЎЙ ЭКТОПАРАЗИТЛАРНИНГ КИМЁПРОФИЛАКТИКАСИ. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 14(5), 107-113.
18. Jabborov, G., & Rayimqulov, I. X. (2022). QO ‘Y VA ECHKILARNING EKTOPARAZITLARI VA ULARGA QARSHI DORI VOSITALARINI SINOVDAN O ‘TKAZISH. *AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 86-89.
19. Нишанов, Д. Х., Жабборов, Ф. Ф., & Райимкулов, И. Х. (2023). ДЕМОДЕКОЗНИНГ ИТЛАР ОРАСИДА ТАРҚАЛИШИ ВА ДИАГНОСТИКАСИ. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 14(5), 133-134.
20. Nishanov, D. X., & Arabov, J. M. (2022). ITLAR DEMODEKOZINI SAMARALI DAVOLASH USULI. *AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 318-322.

21. Oripov, A. O., Davlatov, R. B., & Yo'ldoshiv, N. E. (2016). Veterinariya gelmintologiyasi. *Toshkent-2016*.
22. Oripov, A. O., Davlatov, R. B., & Yuldashiv, N. E. Veterinary helminthology. *Tashkent-2016*.
23. Курбанов, Ш. Х., Отабоев, Х. Э., Эшқораев, А. М., & Фармонов, М. У. (2022). ЖИГАР ТРЕМАТОДАЛАРИНИНГ БИОЭКОЛОГИК ВА ЭПИЗОТОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. *RESEARCH AND EDUCATION*, 1(9), 256-264.
24. Райимкулов, И. Х., Нишанов, Д. Х., & Жабборов, Ф. Ф. (2023). КАТАРАЛ-ЙИРИНГЛИ БРОНХОПНЕВМОНИЯНИНГ ПАТОМОРФОЛОГИЯСИ (ҚЎЗИЛАРДА). *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 14(5), 143-148.
25. Рустамов, Б. С., & Давлатов, Р. Б. (2021). КУРКАЛАР ГИСТОМОНОЗИНИ ДАВОЛАШ ВА ОЛДИНИ ОЛИШДА ВИТАМИНЛИ КОМПЛЕКСЛАРНИ СИНОВДАН ЎТКАЗИШ. *ВЕСТНИК ВЕТЕРИНАРИИ И ЖИВОТНОВОДСТВА*, 1(2).
26. Rustamov, B. S., & Davlatov, R. B. Prevalence and Treatment of Turkey's Histomonosissamarkand Institute of Veterinary Medicine. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, (1), 1-5.
27. Рустамов, Б. С., & Давлетов, Р. Б. (2019). СПЕЦИФИЧЕСКАЯ АКТИВНОСТЬ ПРЕПАРАТОВ ПРИ ГИСТОМОНОЗЕ ИНДЕЕК. In *СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ, ТРАДИЦИИ И ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В РАЗВИТИИ АПК* (pp. 116-119).
28. Турсункулов, А. Р., & Хушназаров, А. Х. (2020). ҲАЙВОНЛАРНИНГ ЛАРВАЛЬ ЦЕСТОДОЗЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШ ЧОРА-ТАДБИРЛАРИ. *ҚОРАҚЎЛЧИЛИК ВА ЧЎЛ ЭКОЛОГИЯСИ ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ*, 332.
29. Худжамшукуров, А. Н., & Давлетов, Р. Б. (2019). РАСПРОСТРАНЕНИЕ ЭЙМЕРИОЗА КУР В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА И ИСПЫТАНИЕ ЭЙМЕРИОСТАТИКОВ ДЛЯ ЕГО ПРОФИЛАКТИКИ. In *СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ, ТРАДИЦИИ И ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В РАЗВИТИИ АПК* (pp. 167-171).
30. Худойбердиевич, Х. А., Хушназарова, М. И., & Исоқулова, З. Х. (2022). ҚУЁН ЭЙМЕРИОЗИНИНГ ТАРҚАЛИШИ, ДИАГНОЗИ, ДАВОЛАШ ВА ОЛДИНИ ОЛИШ. *RESEARCH AND EDUCATION*, 1(9), 245-249.
31. Хушназаров, А. Х., Райимкулов, И. Х., Эшқораев, А. М., & Давлатов, Р. Б. (2023). ҚУЁН ЭЙМЕРИОЗИНИНГ КИМЁПРОФИЛАКТИКАСИ. *SCHOLAR*, 1(2), 56-62.
32. Хушназаров, А. Х. (2022). ОБЗОР ЛИТЕРАТУРНЫХ ДАННЫХ ПО ХИМИОТЕРАПИИ И ХИМИОПРОФИЛАКТИКИ ЭЙМЕРИОЗА КРОЛИКОВ. *PEDAGOGS journali*, 23(2), 83-86.
33. Хушназаров, А. Х., Хушназарова, М. И., & Исоқулова, З. Х. (2023). ЭЙМЕРИОЦИД ПРЕПАРАТЛАРНИ ҚУЁН ЭЙМЕРИОЗИДА ҚЎЛЛАШ. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(1), 138-143.

34. Хушназаров, А., Райимкулов, И., & Эшқораев, А. (2023). ЗАМОНАВИЙ КАТАКЛАРДА ҚУЁНЛАРНИ БОҚИШ УСУЛЛАРИ. *Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences*, 3(1 Part 2), 52-57.
35. Хушназарова, М. И., Исоқулова, З. Х., & Расулов, У. И. (2023). ҚУЁНЧИЛИК СОФ ДАРОМАД МАНБАИДИР. *SCHOLAR*, 1(2), 63-67.
36. Хушназарова, М. И., & Расулов, У. И. (2022). ҚУЁН ГЎШТИНИНГ ВЕТЕРИНАРИЯ САНИТАРИЯ ЭКСПЕРТИЗАСИ. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 21, pp. 78-83).
37. Хушназарова, М. И., Расулов, У. И., & Исакулова, З. Х. (2022). СОВРЕМЕННЫМ И ПЕРСПЕКТИВНЫМ МЕТОДАМ ВЕТЕРИНАРНО-САНИТАРНОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ. *Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science*, 3(2), 81-84.